PROBATSIYA XIZMATI IJRO ETADIGAN OZODLIKNI CHEKLASH JAZOSINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Karimov Shuhrat Sultonqulovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22978681

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan ozodlikni cheklash jazosining huquqiy tabiati, uni ijro etishda probatsiya xizmatining o‘rni va vakolatlari, mahkumga yuklatiladigan taqiq hamda cheklovlar, probatsiya nazoratining asosiy shakllari va ozodlikni cheklash jazosining boshqa jazo turlaridan farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jazoni ijro etish jarayonida mahkumning huquq va majburiyatlari, nazoratning zamonaviy usullari, jumladan elektron nazorat vositalaridan foydalanish masalalariga e’tibor qaratiladi. Maqolada ozodlikni cheklash jazosining asosiy maqsadi mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratmagan holda uning xulq-atvorini nazorat qilish, uni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda takroriy jinoyatchilikning oldini olish bilan bog‘liqligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: probatsiya, probatsiya xizmati, ozodlikni cheklash, jazo, mahkum, probatsiya nazorati, taqiq, cheklov, elektron nazorat, jinoyat-ijroiya qonunchiligi, qayta jinoyatchilikning oldini olish.

Huquqiy davlatda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlashdan asosiy maqsad faqat uni jazolash emas, balki mahkumni axloqan tuzatish, uning yangi jinoyat sodir etishining oldini olish va jamiyat xavfsizligini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida ham jazoning mazmuni va maqsadlari belgilangan bo‘lib, jazo mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat davlat majburlov chorasi sifatida e’tirof etiladi.

Jazo tizimida ozodlikni cheklashning alohida o‘rin tutishi uning mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratmagan holda nazorat ostida saqlash imkonini berishi bilan izohlanadi. Jinoyat kodeksida ozodlikni cheklash mustaqil asosiy jazo turi sifatida belgilangan.

Ozodlikni cheklash jazosining samarali ijro etilishi esa, avvalo, probatsiya xizmatining faoliyatiga bog‘liq. 2024-yil 7-avgustda qabul qilingan O‘RQ-938-sonli “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun probatsiya sohasidagi munosabatlarni alohida huquqiy tartibga solib, jazoni ijro etish va nazorat qilishning huquqiy asoslarini yanada tizimlashtirdi. Mazkur Qonunning 32-moddasiga ko‘ra, ozodlikni cheklash

tarzidagi jazoni ijro etish Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*Ozodlikni cheklash jazosining huquqiy tabiati***.** Ozodlikni cheklash — shaxsning erkinligini to‘liq yo‘qotmasdan, uning muayyan huquq va imkoniyatlarini sud tomonidan belgilangan tartibda cheklashga qaratilgan jazo turidir. Mazkur jazoning asosiy xususiyati shundan iboratki, mahkum odatda jamiyatdan ajratilmaydi, biroq uning kundalik hayotiga muayyan huquqiy cheklovlar joriy etiladi.

Jinoyat kodeksining 48^1-moddasida ozodlikni cheklashning mazmuni va uni qo‘llash shartlari belgilangan. U mahkumga yashash joyini butunlay tark etishni taqiqlash yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishini cheklash ko‘rinishida qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, sud mahkumning xulq-atvori va sodir etilgan jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib qo‘shimcha taqiqlar va majburiyatlarni belgilashi mumkin. [1]**.**

Shu jihatdan ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosidan tubdan farq qiladi. Ozodlikdan mahrum qilishda mahkum jamiyatdan ajratilib, maxsus jazoni ijro etish muassasasiga joylashtiriladi. Ozodlikni cheklashda esa shaxs jamiyatda, odatda yashash joyida qoladi va belgilangan talablar asosida nazorat qilinadi.

Bu holat mahkumning oilaviy, mehnat va ijtimoiy aloqalarini saqlab qolishiga imkon beradi. Shu bilan birga, uning erkinligi sud hukmida ko‘rsatilgan doirada cheklanadi.

Probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosini ijro etishdagi o‘rni. Probatsiya xizmatining asosiy vazifalaridan biri sud tomonidan tayinlangan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo choralarining ijrosini ta’minlash hamda probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilishdan iborat.

“Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun probatsiya faoliyatini faqat nazorat qilish bilan cheklamaydi. Unda probatsiyaning maqsadlari qatorida probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda takroriy jinoyatlarning oldini olish kabi yo‘nalishlar ham nazarda tutilgan.

Shuning uchun probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosini ijro etishdagi faoliyatini ikki asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin:

birinchidan, mahkum tomonidan sud hukmida belgilangan taqiq, cheklov va majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish;

ikkinchidan, mahkumning jamiyatga moslashuviga ko‘maklashish va uning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish.

Mazkur ikki yo‘nalishning uyg‘unligi probatsiya institutining o‘ziga xos jihatini tashkil etadi.

Ozodlikni cheklash jazosining o‘ziga xos jihatlari

Ozodlikni cheklash jazosining bir qator o‘ziga xos jihatlari mavjud.

Birinchi jihat — *mahkumning jamiyatdan ajratilmasligi.*

Mahkum jazoni o‘tash davrida o‘z yashash joyida qolishi mumkin. Bu unga oila a’zolari bilan munosabatlarni davom ettirish, ishlash yoki o‘qish imkoniyatini saqlab qolish uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, mazkur imkoniyatlar sud tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya qilish sharti bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi jihat — *sud tomonidan individual cheklovlarning belgilanishi.*

Ozodlikni cheklash jazosida barcha mahkumlar uchun bir xil cheklovlar mavjud bo‘lishi shart emas. Sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati, mahkumning shaxsi va ish holatlaridan kelib chiqib tegishli taqiq va cheklovlarni belgilashi mumkin.

Jumladan, mahkumga muayyan joylarga bormaslik, ommaviy yoki boshqa tadbirlarda ishtirok etmaslik, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanmaslik, ayrim buyumlarga ega bo‘lmaslik yoki ularni saqlamaslik, transport vositasini boshqarmaslik kabi taqiqlar qo‘yilishi mumkin. Shuningdek, yashash, ish yoki o‘qish joyini tegishli organ roziligisiz o‘zgartirmaslik, ma’muriy hududdan tashqariga chiqmaslik kabi cheklovlar ham belgilanishi mumkin.

Uchinchi jihat — *mahkumning muayyan majburiyatlarni bajarishi.*

Sud mahkum zimmasiga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararning o‘rnini qoplash, ishga yoki o‘qishga joylashish hamda uning tuzalishiga ko‘maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Bu jihat ozodlikni cheklash jazosining nafaqat nazorat, balki tarbiyaviy va ijtimoiy moslashtirish xususiyatiga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Probatsiya nazoratining amalga oshirilishi. Ozodlikni cheklash jazosini ijro etish jarayonida mahkum probatsiya bo‘linmasida hisobga olinadi va uning xulq-atvori ustidan nazorat amalga oshiriladi.

2025-yilda tasdiqlangan Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomada ozodlikni

cheklash jazosini o‘tayotgan shaxsning sud tomonidan belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya qilishi, shuningdek jazoni o‘tash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan probatsiya bo‘linmasiga chaqiruv bo‘yicha kelishi nazarda tutilgan.

Mahkum probatsiya bo‘linmasining ruxsatisiz muayyan vaqtda yashash joyini tark etishi, ayrim joylarga borishi, ma’muriy hududdan tashqariga chiqishi yoki yashash joyini o‘zgartirishi mumkin emas.

Demak, probatsiya nazorati oddiy ro‘yxatga olishdan iborat bo‘lmay, mahkumning kundalik xulq-atvorini nazorat qilish, uning sud tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etishini tekshirish va zarur hollarda tegishli choralarni ko‘rishni qamrab oladi.

Elektron nazorat vositalaridan foydalanish. Zamonaviy sharoitda probatsiya nazoratini texnik vositalar yordamida amalga oshirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Xususan, ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxslarga nisbatan elektron braslet kabi texnik nazorat vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Elektron nazorat vositalarining asosiy vazifasi mahkumning belgilangan hudud va vaqt chegaralariga rioya qilishini nazorat qilishdan iborat. Bu probatsiya xodimlarining nazorat samaradorligini oshirish, nazorat jarayonlarini raqamlashtirish va ayrim hollarda inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaldagi Yo‘riqnomada elektron braslet shaxs probatsiya hisobidan chiqarilayotgan vaqtda yechilishi, shuningdek tegishli shartlarga rioya qilingan hollarda u qo‘llanilgan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach yechilishi nazarda tutilgan.

Bundan kelib chiqib, elektron nazorat vositalarini ozodlikni cheklash jazosini ijro etishning zamonaviy va texnologik mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Mahkumning huquq va majburiyatlari. Ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxs faqat majburiyatlarga ega bo‘lmay, qonunchilikda belgilangan huquqlardan ham foydalanadi.

Mahkum, avvalo, unga nisbatan qo‘llanilayotgan cheklovlar qonuniy va asosli bo‘lishini talab qilish, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, probatsiya xodimlarining qonunga xilof harakatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Boshqa tomondan, u sud hukmida belgilangan talablarni bajarishi, probatsiya organi chaqiruvlariga kelishi, yashash yoki ish/o‘qish joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq belgilangan tartibga rioya qilishi, sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi kerak.

Shunday qilib, ozodlikni cheklash jazosida huquq va majburiyatlarning o‘zaro muvozanati muhim ahamiyatga ega. Nazorat haddan tashqari kuchaytirilmasligi, biroq sud hukmining real ijrosi ham ta’minlanishi lozim.

Jazoni o‘tash tartibini buzish va uning huquqiy oqibatlari. Ozodlikni cheklash jazosining samarali ijro etilishi mahkumning belgilangan tartibga rioya qilishiga bevosita bog‘liq. Mahkum sud tomonidan belgilangan taqiq va cheklovlarni buzgan yoki o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda qonunchilikda tegishli ta’sir choralari nazarda tutilgan.

2025-yilgi Yo‘riqnomaga ko‘ra, ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxs tegishli qoidabuzarlikni birinchi marta sodir etganda unga ogohlantirish tarzidagi intizomiy jazo chorasi qo‘llanishi mumkin. Shundan keyin tegishli buzilish takroran sodir etilsa, probatsiya bo‘linmasi jazoning boshqa turiga almashtirish masalasida sudga taqdimnoma kiritadi.

Jinoyat kodeksida ham mahkum ozodlikni cheklash jazosini o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlagan yoki sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda jazoning o‘talmagan qismi boshqa turdagi jazo bilan almashtirilishi mumkinligi belgilangan. Bunda jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash vaqti o‘talgan jazo muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Bu qoidalar probatsiya nazoratining majburiy xususiyatini va sud hukmining ijrosini ta’minlash mexanizmlarini ko‘rsatadi.

Ozodlikni cheklash muddatini hisoblash. Ozodlikni cheklash jazosining muhim xususiyatlaridan yana biri uning muddatini hisoblash tartibidir.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 44^2-moddasiga muvofiq, ozodlikni cheklash muddati mahkum probatsiya bo‘linmasida hisobga qo‘yilgan kundan boshlab hisoblanadi. Shu bilan birga, mahkum uzrli sabablarsiz o‘zboshimchalik bilan yashash joyida bo‘lmagan vaqt jazoni o‘tash muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Mazkur tartib jazoni ijro etish muddatini aniq belgilash va mahkum tomonidan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash holatlarining oldini olish uchun muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

Ozodlikni cheklash jazosining ijtimoiy ahamiyati. Ozodlikni cheklashning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, mahkumni jamiyatdan ajratmasdan turib uning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Ozodlikdan mahrum qilish shaxsni oila, mehnat va ijtimoiy muhitdan ajratadi. Ozodlikni cheklash esa, aksincha, mahkumga qonuniy faoliyatini davom ettirish imkonini saqlab qolishi mumkin. Bu esa uning ijtimoiy aloqalarini uzib qo‘ymaslik

va jamiyatga moslashuvini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Shu bilan birga, mazkur jazoning samaradorligi faqat nazorat darajasiga emas, balki mahkum bilan individual ishlashga ham bog‘liq. Probatsiya xodimi mahkumning oilaviy sharoiti, bandligi, ijtimoiy muhitini va huquqbuzarlikka olib kelgan omillarni hisobga olgan holda tegishli profilaktik va ijtimoiy moslashtirish choralarini amalga oshirishi muhim [9].

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etishni takomillashtirish masalalari. Amaliyotda ozodlikni cheklash jazosini ijro etish samaradorligini oshirish uchun bir qator yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, *probatsiya nazoratini raqamlashtirishni rivojlantirish* zarur. Elektron nazorat vositalari, raqamli hisob va ma’lumot almashish tizimlaridan samarali foydalanish probatsiya xodimlarining ishini yengillashtirishi va nazoratning aniqligini oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, *mahkumlar bilan individual ishlash mexanizmlarini kuchaytirish* lozim. Har bir mahkumning jinoyat sodir etishiga sabab bo‘lgan omillar bir xil emas. Shu sababli ularga nisbatan bir xil yondashuvdan ko‘ra individual profilaktik dasturlarni qo‘llash samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, *bandlik va ta’lim masalalariga e’tibor berish* muhim. Ishsiz yoki ijtimoiy jihatdan beqaror shaxslarni mehnatga jalb qilish, kasb-hunarga o‘qitish va qonuniy daromad manbaini shakllantirish ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qiluvchi omillardan biri hisoblanadi [8].

To‘rtinchidan, *probatsiya xodimlarining kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirish* zarur. Chunki probatsiya faoliyati huquqiy bilimlardan tashqari psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarni ham talab qiladi.

Beshinchidan, *davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish* maqsadga muvofiq. Mahkumni ijtimoiy moslashtirish faqat probatsiya organining vazifasi bo‘lib qolmasligi, balki bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla va boshqa tegishli tuzilmalar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ozodlikni cheklash jazosi O‘zbekiston jinoyat-huquqiy tizimida mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratmagan holda uning huquq va erkinliklarini muayyan darajada cheklash orqali jazolash, nazorat qilish va tuzatishga qaratilgan jazo turi hisoblanadi.

Mazkur jazoning o‘ziga xosligi shundaki, mahkum jazoni o‘z yashash joyida o‘tashi mumkin, biroq sud tomonidan belgilangan taqiq, cheklov va majburiyatlarga

qat’iy rioya qilishi shart. Uning xulq-atvori probatsiya bo‘linmasi tomonidan nazorat qilinadi. Amaldagi tartibda elektron nazorat vositalaridan foydalanish ham nazorat mexanizmlarining bir qismiga aylangan [6].

Probatsiya xizmatining faoliyati faqat jazoni nazorat qilish bilan cheklanmasligi, balki mahkumni ijtimoiy moslashtirish, uning bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, qonuniy turmush tarzini shakllantirish va takroriy jinoyatchilikning oldini olishga yo‘naltirilishi [7] lozim. “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ushbu sohadagi munosabatlarni alohida qonun darajasida tartibga solish uchun muhim huquqiy asos yaratdi.

Shuningdek, ozodlikni cheklash jazosini ijro etishda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, sud hukmining so‘zsiz ijrosini kafolatlash hamda nazorat va ijtimoiy moslashtirish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli kelgusida probatsiya tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, mahkumlar bilan individual ishlashni takomillashtirish, bandlik va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirish hamda davlat organlari va jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ozodlikni cheklash jazosining ijro samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997-yil 25-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-938-son, 2024-yil 7-avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 19-iyuldagi 403-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.
6. Abdullayev, F. (2026, June). ICHKI ISHLAR ORGANLARI TOMONIDAN TRANSPORT VOSITALARIGA EKOSTIKERLAR JORIY QILISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUQUQIY-AMALIY YONDASHUVLAR. In Scientific Conference Open Proceedings (Vol. 3, No. 2, pp. 207-211).
7. YULDASHEV, J. (2020). BASIC PRINCIPLES OF CITIZENSHIP OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CONSTITUTIONAL AND LEGAL ANALYSIS.

THE AMERICAN JOURNAL OF POLITICAL SCIENCE LAW AND CRIMINOLOGY Учредители: The USA Journals, 2(10), 123-128.

8. Mahkamov, D., & Xudoyberdiyev, A. (2026, June). ICHKI ISHLAR ORGANLARI TOMONIDAN MULKIY JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI. In Scientific Conference Open Proceedings (Vol. 3, No. 2, pp. 219-224).

9. Xayitovich, Y. J. (2021). Admission to the citizenship of the Republic of Uzbekistan in a simplified manner basics and conditions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1421-1424.